

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMI MEZONLARI

Xo'jaqulov B.A.

Toshkent davlat pedagogika universiteti

khujakulovbekhzod@gmail.com

Annotatsiya:

Strategik rejalashtirish bo'limining roli va vazifalari axborotlar to'plash va ularni ishlash, strategiyani xar yili qayta ko'rib chiqish tizimini yaratish va kelajakda uni boshqarishdan iborat bo'ladi. Direktorlar kengashi muxim strategik yo'nalishlarni ko'rib chiqadi va yuqori boshqaruv tizimi tavsiya etgan strategik rejalarni rasmiy jixatdan tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: o'rta ta'lim, ketma-ketlik, kognitiv, maqsadli komponent, bilim, ko'nikma, strategik boshqaruv, ta'lim- tarbiya.

КРИТЕРИИ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОБЩЕ-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛОЙ

Аннотация:

Роль и задачи отдела стратегического планирования будут заключаться в сборе информации и ее обработке, создании системы ежегодного пересмотра стратегии и управлении ею в дальнейшем. Совет директоров рассматривает важные стратегические направления и официально утверждает стратегические планы, рекомендованные высшим руководством.

Ключевые слова: среднее образование, последовательность, познавательный, целевой компонент, знания, умения, стратегическое управление, образование.

CRITERIA FOR THE SYSTEM OF STRATEGIC MANAGEMENT OF A COMPREHENSIVE GENERAL EDUCATION SCHOOL

Abstract:

The role and tasks of the strategic planning department will be to collect information and process it, create a system for annual review of the strategy and manage it in the future. The Board of Directors reviews important strategic directions and formally approves the strategic plans recommended by senior management.

Keywords: secondary education, sequence, cognitive, target component, knowledge, skills, strategic management, education.

Ta'lim muassasasini boshqarish mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan vazifalarning bajarilishini, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baxolash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun moddiy-texnik bazani yaratish va mustahkamlab borish, mazkur jarayonni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Boshqaruv faoliyatining mazmun-mohiyati boshqaruv strategiyalarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi va ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta'sir kursatishning tartibi, ketma-ketligi, ularning tugallanish davrini aks ettiradi. Boshqaruv faoliyati - bu boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning yo'nalishini ifodalovchi va kuzlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bogliq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimdir. Ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish xamda innovatsion faoliyatni tashkil etishda boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish muxim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish uziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur jarayon ijodiy jarayon xisoblanadi va o'z navbatida ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari yo'nalishida ko'zlangan natijalarga erishish uchun eng qulay bo'lgan boshqaruv metodlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish asosida boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish, xodimlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarda xamda muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda oqilona qarorlar qabul qilish, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilishda boshqaruv faoliyatini ma'lum bir izchillikda loyihalashtirishni nazarda tugadi.

Strategik rejalashtirish bo'limining roli va vazifalari axborotlar to'plash va ularni ishlash, strategiyani xar yili qayta ko'rib chiqish tizimini yaratish va kelajakda uni boshqarishdan iborat bo'ladi.

Direktorlar kengashi muxim strategik yo'nalishlarni ko'rib chiqadi va yuqori boshqaruv tizimi tavsiya etgan strategik rejalarni rasmiy jixatdan tasdiqlaydi.

Direktorlar kengashining vazifasi - bu barcha maktablar yetarli darajada tahlil qilib va ko'rib chiqilganligiga xamda taklif etilgan strategik chora-tadbirlar mavjud variantlardan eng yaxshisi ekanligiga ishonch xosil qilishdan iboratdir.

Strategik rejalashtirishning afzalliklari : 1.Ishni tashkil etishni strategiyaning «biz nima qilish uchun xarakat qilayapmiz va nimaga erishyapmiz?» degan asosiy aspektga yo'naltirilganligini ta'minlash; 2.Vujudga kelayotgan o'zgarishlar, yangi imkoniyatlar va taxdid solayotgan tendentsiyalarga menejrlarning yanada aniq reaksiya ko'rsatish zaruriyati; 3.Kapital qurilmalar va personal sonini kengaytirishning muqobil variantlarini baholash, ya'ni resurslarni strategik asoslangan va yuqori rentabelli loyixalarga oqilona yo'naltirish imkoniyati; 4.Boshqarishning barcha darajalari raxbarlarini qarorlarini birlashtirish imkoniyati; 5.Faol raxbarlikka yaxshi imkoniyatlar yaratadigan va o'zgarishlarga passiv reaksiya ko'rsatish tendentsiyalariga qarshilik qiladigan muxitni yaratish.

Strategiya tuzishga yondoshuvlar quyidagicha bo'ladi: 1)Bosh strategik yondoshuv - bunda strategiyani boshliqning o'zi ishlab chiqadi. Bunday xolda boshqaruvchi axvolni baholashga,

muqobil strategiyalarga va strategiya detallariga kuchli ta'sir qiluvchi asosiy strategik va asosiy ijodkorlik sifatida chiqadi. 2) Vakolatlarini berish yondoshuvi - bunda strategiyani tuzish xodimlarga yoki komissiyaga topshiriladi. Bunday xolda mas'ul boshqaruvchi strategiyani ishlab chiqishni boshqalarga, asosan, strategik rejalashtirish bo'yicha personalga yoki ishonch bildirilgan xodimlardan tuzilgan maxsus komissiyaga topshiradi. 3) Qo'shma (kollaboratsion) yondoshuv - bu avvalgi ikki yondoshuv o'rtasidagi oraliq variant. Bunday usulning eng kuchli tomoni shundaki, strategiyani ishlab chiqish kimlarga topshirilgan bo'lsa, uni ushalarining o'zlari bajarishlari kerak bo'ladi. 4) Tashabbusli yondoshuv. Bunday yondoshuvda boshqaruvchi kelishilgan strategiyani ishlab chiqish uchun strategiya detallarini ishlab chiqishdan xam, «g'oyalar generatorlari» guruhini boshqarishdan xam manfaatdor emas. Boshqaruvchi oqilona strategiyani ishlab chiqish, ximoya qilish va xayotga tadbiiq etish uchun menejrlarni o'zlarini safarbar etadi. Strategiyani ishlab chiqish uchun boshqaruvchilar foydalanishlari mumkin bo'lgan turt asosiy yondoshuvning birortasi xam eng yaxshi yondoshuv sifatida yo'zaga chiqmaydi. Ularning xar birini kuchli va kuchsiz tomonlari mavjud.

Boshqaruv tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, belgilangan maqsadlarga erishishda raxbarlar, mutaxassislar va ijrochilarning lavozimi yo'nalishidagi vazifalarini o'zaro aloqadorligi va bog'likligini xisobga olish boshqaruvni tashkil etish zarur xisoblanadi. Ta'lim muassasalarini boshqarishning o'ziga xosligi ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, raxbarlik faoliyatidan oqilona foydalanish, boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilash, shuningdek, belgilangan maqsadga erishish yunalishidagi vazifalarni bajarishda muhim axamiyat kasb etuvchi axborot-taxlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan kognitiv fikrlash, nazorat tashxis va tartibga solish-muvofiklashtirish funksiyalarini amalga oshirish jarayonida aniqrok ifodalanadi, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta'minlash, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishga yunaltirilgan buladi. Mazkur strategiyalarni amalga oshirishda raxrarlarning demokratik tamoyillarga asoslanishi, barcha xodimlarni boshqaruv jarayoniga jalb etilishi, yuqori samaradorlikka erishishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalarini amalga oshirishni rejalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, funksiyalarining mazmun-mohiyati va vazifalari inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda mazkur strategiyalarni amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi xamda mazkur vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv vositalari tanlab olinib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlariga asosan amalga oshiriladi, bunda boshqaruv faoliyati faqatgina maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning to'lik to'plami yoki xarakatlar shaklida mavjud bo'ladi, mazkur boshqaruv algoritmini ifodalaydi.

Mazkur boshqaruv algoritmi pedagogik jarayonning ishonchli axborotlar tuplash, qayta ishlash va obyektiv baxolash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish kognitiv rejalashtirish; kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; jamoa faoliyatini nazorat qilish tashxis; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofikdashtirish; ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat bo'lib, mazkur bosqichlar

izchilligida, boshqaruv metodlarini ko'llash yordamida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini strategik boshqarishni takomillashtirish boshqaruvida pedagog xodimlar, mutaxassislar xamda o'quvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi, shuningdek, muassasa faoliyatini takomillashtirishda mu'lum ahamiyat kasb etuvchi asosiy jarayonlardan biri qarorlar, buyruqdar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash va ularning bajarilishini ta'minlash jarayoni xisoblanadi, mazkur jarayonda tashkiliy-ma'muriy strategiyalardan foydalanadi.

Ta'lim muassasasining faoliyatini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari zaruriy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, boshqaruv jarayonini qayta tashkil etishda rahbarlar mavjud yo'nalishlar bo'yicha ishonchli va asosli axborotlar to'plashda mazkur usullardan tashkil topgan axborotlar tuplash vositalaridan foydalanadi, ya'ni meyoriy xujjatlarni o'rganadi va ularda belgilangan talablarning bajarilishini taxdil qiladi, o'quvchilarning bilimini DTS talablari bo'yicha tekshiradi, shuningdek, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining dinamikasini taxdil qiladi, o'qituvchilarning darslarini kuzatadi, ochiq darslarga qatnashadi, pedagog xodimlar faoliyatini o'rganadi, ta'lim muassasasidagi munosabatlar, raxbar xodim, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari so'rovnomalar o'tkazish orqali aniqlanadi.

REFERENCES:

1. R.X.Djo'rayev, S.Turg'unov Ta'lim menjmenti darslikgidan
2. Kudratov K.K. O'qitish jarayonida kognitiv kompetentlikni shakllantirish. "Uzluksiz ta'lim" jurnali.
3. Kudratov K.K. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda sunrav bookoffice dasturining imkoniyatlari "Ilmiy axborotlar."
4. Khalilova, N. I. (2023). THE INFLUENCE OF INTELLECTUAL ACTIVITY ON THE DEVELOPMENT OF REFLECTIVENESS IN A PERSON. *International Journal of Pedagogics*, 3(02), 10-13.
5. Халилова, Н. (2018). Особенности формирования рефлексии в подростковом возрасте. *Навчання і виховання обдарованої дитини: теорія та практика*, (2), 111-120.
6. Халилова, Н. И., & Рахимова, Ё. И. (2015). ЭКСТРЕМАЛЬНАЯ СИТУАЦИЯ КАК КАТАЛИЗАТОР РЕФЛЕКСИВНЫХ ПРОЦЕССОВ ЛИЧНОСТИ. *Pedagogy & Psychology. Theory and practice*, (2), 76-77.
7. Арсланова, Г. Д., Панкина, М. С. (2023). Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников. *Муаллим илмий журнали*, 1(3), 409-413.
8. Арсланова, Г. Д., Сытина, Н. В. (2023). Инклюзивное обучение в начальном образовании. *Муаллим илмий журнали*, 1(3), 409-413.
9. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. *Konferensiya*, 1(1), 379-382.
10. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 72-77.
11. Qarshiboyeva, X. K., Muminov, Z. Sh. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 269-274.